

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O‘ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO‘RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o‘g‘li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O‘ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG‘ONIY TA‘LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN‘IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA‘SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> “O‘RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA‘RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA‘RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI”	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNYIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

TYPES AND LEGAL BASIS OF EXEMPTION FROM CRIMINAL LIABILITY

Kabilov Sardor Asrolovich

Master's student of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: sadakaba1983@gmail.com

Abstract. The article describes the types of exemption from criminal liability from a legal point of view and also refers to the scientific views of scientists in this regard. Also, in the process of analysis, the grounds for applying each type of exemption from liability, its significance and essence are highlighted.

Keywords: release from criminal liability, discretionary, imperative, amnesty, reconciliation, remorse, public danger.

JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Kabilov Sardor Asrolovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Maqolada jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning turlari huquqiy jihatdan yoritib berilgan bo'lib, bu borada olimlarning ilmiy qarashlariga ham murojaat qilingan. Shuningdek, tahlil jarayonida javobgarlikdan ozod qilish turlarining har birini qo'llash asoslari, uning ahamiyati va mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, diskretion, imperativ, amnistiya, yarashuv, pushaymon bo'lish, ijtimoiy xavflilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N41>

Ma'lumki, jinoyatchilikka qarshi kurash tizimida muhim o'rin tutadigan asosiy omillardan biri sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun jinoiy javobgarlikning qonunchilikda belgilanganligi hamda uni qo'llashning maqsadga muvofiqlik darajasidir. Jinoiy javobgarlikning mavjudligi davlatning jinoyatchilikka nisbatan qat'iy munosabatini ifoda etib, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jinoiy javobgarlik faqat jazo tayinlash orqali emas, balki uni qo'llashda oqilona va differensial yondashuvni talab etadigan huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi mazkur yondashuvni inobatga olgan holda, nafaqat jazo choralarini, balki ayrim hollarda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi normalarni ham o'z ichiga oladi. Bu davlatning jinoiy-huquqiy siyosatidagi insonparvarlik, adolat va mutanosiblik tamoyillarining ustuvorligini ko'rsatadi. Xususan, jinoyat sodir etgan shaxsning o'zining sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga bo'lgan munosabati, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, yetkazilgan zararining qoplanganligi hamda shaxsning jinoyatdan keyingi xulq-atvori kabi omillar jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalarining mavjudligi jinoyatchilikka qarshi kurash tizimida jazoning mutlaq ustuvor ekanligi emas, balki huquqiy ta'sir choralari individuallashtirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuv ustuvor ekanligini anglatadi. Bu esa jinoiy-huquqiy qonunchilikning samaradorligini oshirish, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xususan, bu borada A.Yakubov quyidagicha fikrlarni bayon etadi: "ayrim hollarda aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortmasdan ham jinoyatlarning umumiy va maxsus oldini olish maqsadlariga erishish mumkin"[1; 351-b].

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy javobgarlikdan ozod etish bir necha asoslarga ko'ra klassifikatsiyalashni nazarda tutuvchi qator konsepsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bular: *birinchisi*, diskretsiyon (jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organi vakolatiga taalluqli bo'lgan) va *ikkinchisi*, imperativ (jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organining majburiyati hisoblangan)[2;43-b].

Albatta D.Qurbonovning bu boradagi haqli e'tirofidan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, **diskretsiyon javobgarlikdan ozod etish** deganda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolati doirasiga kiritilgan holat tushuniladi. Bunda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha asoslar mavjud degan xulosaga kelgan taqdirda, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Bunga aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi, jabrlanuvchi bilan yarashganligi, sharoitning o'zgarganligi kabi asoslarga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kabi asoslarni misol qilishimiz mumkin.

O'z navbatida, **imperativ turdagi jinoiy javobgarlikdan ozod etish** huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun majburiy xususiyatga ega bo'lgan javobgarlikdan ozod qilish shakli hisoblanadi. Bunday holatlarda qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, vakolatli organ shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etishga majbur bo'ladi. Masalan, javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi, shaxsning kasalligi sababli javobgarlikdan ozod qilinishi, amnistiya aktiga asosan jinoiy javobgarlikdan ozod etish kabilar shuningdek, Jinoyat kodeksining Maxsus qismida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslari to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lgan holatlar shular jumlasidan.

Sh.Berdiyev ham D.Qurbonovga o'xshash fikrlarni ilgari surgan bo'lib, unga ko'ra, "qonunni qo'llash muqobil qoidaga ega bo'lmagan, yuzaga kelgan jinoiy-huquqiy munosabatlar bilan vakolatli davlat organlari tomonidan, ularning xohish-istagidan qat'iy nazar, so'zsiz qo'llanilishi shart bo'lgan asoslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning majburiy (imperativ) normalari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, huquqni qo'llayotgan vakolatli mansabdor shaxs yoki organ normalarni qonunda yoki amnistiya aktida ko'rsatilganidek bajarishi shart" [3; 116-b].

M.Usmonaliyev javobgarlikdan ozod qilishni qo'llanishi mumkin bo'lgan shaxslarning sodir qilgan jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab guruhga ajratadi. Ya'ni olimga ko'ra, birinchi guruhga sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasidan qat'i nazar, javobgarlikdan ozod qilishni qo'llanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar bo'lib, bular javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish, kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish, amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish.

Ikkinchi guruh esa faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan javobgarlikdan ozod qilish bo'lib, bular qilmish yoki shaxs maxsus ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish va yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish[4; 534-b].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish" asoslarini belgilab beruvchi beshinchi bo'limining XII bobi "Javobgarlikdan ozod qilishning turlari" deb nomlanib, u 64-68-moddalarni o'z ichiga oladi. Bunda, 64-moddada javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish, 65-moddada qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, 66-moddada aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, 66¹-moddada yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, 67-moddada kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish, 68-moddada amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish kabi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlarining asoslari belgilab berilgan.

Ushbu yuqorida sanab o'tilgan moddalarda nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini huquqiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu asoslarni vaqt bo'yicha, shaxsga bog'liq holatlar bo'yicha va davlatning to'g'ridan-to'g'ri qo'llash uchun qabul qiladigan huquqiy akti kabi omillar bilan bog'liq turlarga ajratish mumkin deb hisoblaymiz.

JKning 64-moddasida **javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish** asoslari keltirilgan bo'lib, mazkur moddaga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab ikki yil, uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab to'rt yil, og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab sakkiz yil, o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o'n to'rt yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi[5].

Demak, JKning 64-moddasida jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari belgilangan bo'lib, agar shaxs ushbu moddada belgilangan muddat davomida javobgarlik masalasi hal qilinmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi belgilangan. Lekin qonun albatta javobgarlik muqarrarligini tan olgan holda shuni inobatga olganki, agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak bo'lgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o'tishi to'xtatilishligi va aybdor ushlangan yoki aybini bo'yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddat o'tishi qayta tiklanadi.

Yuridik adabiyotlarda muddat o'tishining boshlanish vaqtini aniqlash yuzasidan olimlar turli xil holatlarni qayd qilganlar. Xususan, Kabulovning ta'kidlashicha, qonunda muddatlar o'tishining ikki turi belgilangan bo'lib, bular: -differensial (tabaqalashtirilgan) muddat va universal (umumiy) muddatlardir. Unga ko'ra, differensial muddatning o'tishi jinoyatlarning tasnifidan kelib chiqadi va JKning 64-moddasi 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etilgan kundan boshlanadi. Universal muddat esa JK 64-moddasi 5-qismida belgilangan qoidalarga asoslanib, shaxs jinoyat sodir etgan kundan boshlab yigirma besh yil muddat o'tishini anglatadi [6; 361-b].

Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish asoslari JKning 65-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra, ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish

ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi yoki jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi javobgarlikdan ozod qilishga asos bo'ladi[5]. Biz yuqorida huquqshunos olim D.Qurbonovni diskretion javobgarlikdan ozod etish haqidagi fikriga aynan mazkur moddada nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilish turini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ya'ni, sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi yoki jinoyat sodir etgan shaxs o'zining ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topish vakolati dastlabki tergov va sud organlariga berilgan. Ushbu asos bo'yicha javobgarlikdan ozod qilish sharti sodir etilgan qilmish yuzasidan sud hukmi chiqmasdan sharoit o'zgarishi tufayli qilmish yoki shaxs o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotishini nazarda tutadi.

JKning 66-moddasi **aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish**ni nazarda tutadi. Bunda, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko'rsatilgan hollarda esa, jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozimligi belgilangan[5].

H.Ochilov va E.Turg'unboyevga ko'ra, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning ikkita, ya'ni obyektiv va subyektiv asoslari mavjud[7; 110-b].

Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish JKga 66¹-modda sifatida O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 254-II-son Qonuniga asosan kiritilgan bo'lib, bunda ijtimoiy xavfli qilmish oqibatida jabr ko'rgan shaxs (jabrlanuvchi) bilan jinoyat sodir etgan shaxsning yarashganligi munosabati bilan aybdor sud ajrimi asosida javobgarlikdan ozod qilinishini nazarda tutadi. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda aniq shartlar belgilangan bo'lib, bunda birinchidan- sodir etilgan jinoyat JK 661-moddasi 1-qismida aniq ko'rsatib o'tilgan jinoyatlar bo'lishligi; ikkinchidan- surishtiruv, dastlabki tergov va sud majlisining istalgan bosqichida jabrlanuvchi bilan yarashish to'g'risidagi ariza berilganligi; uchinchidan- agar shaxs ilgari og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlari uchun muqaddam sudlangan bo'lsa, uning ushbu jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallangan yoki olib tashlangan bo'lishligi, to'rtinchidan- shaxs o'z aybiga iqrор bo'lishligi; beshinchidan- jabrlanuvchiga yetkazilgan zararining qoplagan bo'lishligi lozim hisoblanadi.

Shu bilan birga, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi[5].

Agar jinoyat sodir etgan shaxsda hukm chiqarilguniga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkin[5]. Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi JKning **kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish deb nomlangan** 67-moddasida o'z aksini topgan.

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish asoslariga, shaxs jinoyat sodir etgan vaqtida aqli raso shaxs bo'lganligi va jinoyat sodir etgandan keyin shaxs hukm chiqarilgunga qadar, o'z

harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolganligi va aqli noraso deb topilganidir[7; 112-b].

Shuningdek, kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilishda agar ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs aqli noraso bo'lsa, sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladi. Lekin shu bilan birga agar, aqli noraso shaxslar sodir etgan qilmishlari uchun JKning 64-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikka tortish muddatlari o'tmasdan sog'aygan taqdirda umumiy asoslarga ko'ra javobgarlikka tortiladi. Sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilgan holatlarda javobgarlikka tortish muddati majburlov chorasi qo'llanilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 68-moddasiga asosan, jinoyat sodir etgan shaxs **amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi** mumkin[5]. Amnistiya- grekcha so'z bo'lib, amnestia – gunohdan o'tish, kechirish degan ma'nolarni anglatadi. Amnistiya akti asosida jinoyat sodir etgan nomuayyan shaxslar doirasi jinoiy javobgarlik yoki jazodan to'liq yoki qisman ozod etiladi yohud jazosi yengillashtiriladi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, qabul qilingan amnistiya aktiga ko'ra, jinoyatni sodir etgan ma'lum shaxslar toifalariga jinoiy-huquqiy ta'sir choralari qo'llamasdan tuzalish imkoniyati beriladi yoki bunday choralari qo'llanilgan shaxslarning ahvoli yengillashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi yigirma uchinchi bandiga asosan[8], O'zbekiston Respublikasining Prezidenti amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi hamda 95-moddasi 7-bandida qayd etilganidek[8], O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qiladi. Amnistiya akti davlat va xalq uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi sanalar munosabati bilan qabul qilinadigan hujjat bo'lib, bunda mazkur hujjat qabul qilingan kunga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan tatbiq qilinadi.

Amnistiya akti ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan muayyan toifa shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko'rsatiladigan insonparvarlik ifodasi bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad mazkur shaxslarga nisbatan ma'muriy yoki jinoyat-huquqiy ta'sir choralari qo'llamagan holda ularning axloqan tuzalishi uchun imkoniyat berish yoxud bunday choralari qo'llanilgan shaxslar holatini yengillashtirishdir[9].

Shaxsni javobgarlikdan ozod qilishning boshqa ayrim turlaridan farqli ravishda amnistiya aktini qo'llash uchun jabrlanuvchining roziligi talab etilmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi taqdimnomasi, prokurorning iltimosnomasi, sudning amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lgan jabrlanuvchi ular ustidan umumiy asoslarda shikoyat berishi mumkin bo'ladi. Lekin, agar amnistiya akti qo'llanilishiga e'tiroz bildirgan shaxs tomonidan ayblov hukmi chiqarilgandan so'ng jinoyat ishini amnistiya aktiga muvofiq tugatish to'g'risida ariza berilishi, agar hukmni bekor qilish uchun boshqa asoslar bo'lmasa, uning apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida bekor qilinishiga olib kelmaydi.

A.Yakubovning fikricha, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning aksariyat turlari shartsizdir. Shaxsni javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'ladigan protsessual hujjatni qabul qilinishi uzil-kesil hisoblanadi. Zero, Jinoyat kodeksida shaxsning bundan keyingi xatti-harakatlariga hech qanday talab qo'yilmaydi[10].

Lekin davlat tomonidan amnistiya aktiga asosan javobgarlikdan ozod qilish siyosatiga, barcha huquqshunos olimlar bir xilda ijobiy fikrda bo'lmaganlar. Xususan, Ch.Bekkariyaning

fikricha, “jazo yengillashtirilgan sari jamiyatda shafqat va kechirimli bo‘lishga zarurat kamayib boraveradi”. Shu sababli, jazolar to‘g‘ri tayinlangan, sud adolatli bo‘lishi ta‘minlangan, qonun hujjatlarida esa kechirishga o‘rin bo‘lmasligi lozim[11].

Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi haqida quyidagicha xulosa qilish mumkinki, amnistiya instituti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan vakolatlar asosida amalga oshirilib, davlatning insonparvarlik siyosati ifodasi hisoblanadi va bu hujjat muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega sanalar munosabati bilan Prezident tashabbusi (taqdimnomasi)ga ko‘ra, Senat tomonidan qabul qilinib, qabul qilingan vaqtga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Amnistiya aktida jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik chegarasi hamda tatbiq etiladigan shaxslar doirasi aniq belgilanadi va uni qo‘llash jabrlanuvchining roziligini talab etilmaydi. Shu bilan birga, amnistiyaning qo‘llash jarayonida protsessual huquqiy kafolatlar saqlanib qoladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. A.S.Yakubov Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009 – B 351
2. D.R.Qurbonov “Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo‘llash muammolari”. Diss. Samarqand 2008.
3. Sh.Berdiyev “Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari” Diss. -Toshkent.: 2011.
4. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. —T., “Yangi asr avlodi”, 2010
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>
6. R.Kabulov, A.A.Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O‘zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.361.
7. H.R.Ochilov, E.O.Turgunboyev “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O‘quv-uslubiy qo‘llanma // mas‘ul muharrir: yu.f.d. F.Toxirov. – T.: nashriyoti, 2013.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 22.12.2006-yildagi “Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 16-son Qarori.
10. A.S.Yakubov Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009 - B 211.
11. Chezare Bekkariya. On Crimes and Punishments (ital. Dei delitti e delle pene, 1764).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).